

**DORIVOR TIRNOQGUL (CALENDULA OFFICINALIS L.)  
O'SIMLIGINING O'SUV DAVRIDA ZARARKUNANDA VA  
KASALLIKLARIGA QARSHI KURASHDA URUG'DORILAGICH  
PREPARATLARNING AHAMIYATI**

*Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich*

*katta o'qituvchi, Toshkent Davlat Agrar Universiteti*

**ANNOTATSIYA:** *Mazkur maqolada dorivor tirnoqgul (calendula officinalis 1) o'simligining o'suv davrida tuproqda yashovchi ko'plab zararkunanda va kasalliklariga uchrashi aniqlangan bo'lib bu esa hosildorlikni yo'qotishga sabab bo'ladi. Shuning uchun bu muommoni oldini olishda dorivor tirnoqgul (calendula officinalis 2) o'simligini urug'larini sifatli urug'dorilagich preparatlar bilan dorilab ekish yuqori hosil olishga katta ahamiyatga ega hisoblanishi hamda ana shu urug'dorilagich preparatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Dorivor tirnoqgul (calendula officinalis l.), kasallik, zararkunanda.*

**KIRISH:** O'simliklar guruhleri orasida dorivor o'simliklarning o'ziga xos o'rni bor. Hozirgi kunda ilmiy tibbiyotda ishlatiladigan dori preparatlarning 60% o'simliklardan ajratib olinmoqda. Shuni ta'kidlash joyizki, sintez yo'li bilan yaratilgan dorilarni 25% dorivor o'simliklar moddalarini bilan bog'liqdir. Keyingi yillarda shifobaxsh o'simliklarga bo'lgan qiziqish yana ortmoqda, chunki ular xom ashyosi asosida tayyorlangan dorivor vositalar – vitaminlar, biologik faol birikmalar va mineral moddalar inson organizmiga juda samarali ta'sir etadi. 1981 yildan tibbiyot amaliyotiga tatbiq etilgan 847 ta oddiy molekulyar dorivor preparatlarning 43 tasi tabiiy birikmalar, 232 tasi tabiiy birikmalarning hosilalari hisoblanadi. Qolgan 572 yangi dorivor preparatlarning 262 tasi ham tabiiy birikmalarga bog'liq holda yaratilgan.

Ma'lumki, dunyo miqyosida farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining yarmidan ko'prog'i dorivor o'simliklar xom-ashyosidan

tayyorlanmoqda. Ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklarining davolashda va profilaktikasi uchun foydalaniladigan dorivor preparatlarning 77%, jigar va oshqozon-ichak kasalliklarini profilaktikasi va davolashda foydalaniladigan dorivor preparatlarning 74%, balg'am ko'chiruvchi dorilarning 73%, qon to'xtatuvchi dorilarning 60% dorivor o'simliklar xom-ashyosi asosida ishlab chiqarilmoqda .

Ana shunday dorivor o'simliklardan biri dorivor tirnoqgul (*calendula officinalis* l.) o'simligi bo'lib, ushbu dorivor o'simligidan sifatli hosil olishda hamda o'suv davrida tuproqdagi kasallik va zararkundalarga qarshi kurashda urug'larni dorilab ekish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Urug'larni dorilamasdan ekish natijasida dorivor tirnoqgul (*calendula officinalis* l.) o'simligining nihollari 35-40% gacha nobud bo'ladi. Agro gaucho 70% n.kuk., Kreyser Ekstra Gold 362 sus.k kabi preparatlardan foydalangan holda dorivor tirnoqgul urug'larini dorilab ekib yuqori biologik samaradorlikka erishdik.

**Xulosa.** Respublikamizda ekilayotgan barcha dorivor o'simliklar urug'larini dorilab ekish zarur deb hisoblayman chunki tuproqda yildan yilga kasallik qo'zg'atuvchi potogenlar va ildiz qismini zararlovchi zararkunandalari soni oshib bormoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Dusmanov I., Xolliyev A. O'simliklar zararkunanda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Tavsianoma. 2015.
2. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.
3. Karshibayev X. K., Maxkamov T.X. - Dorivor o'simliklar biologiyasi va ekologiyasi "Ziyo Nashr-Matbaa" nashriyoti Guliston - 2022.